

MATEMATIKA DARSLARINI AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA SAMARALI TASHKIL ETISH

Marjona Qudratovna

G'ulomova Marjona Qudratovna

Buxoro shahar 23-IDUM mактабининг математика оқитувчisi

Muhidov Asqar Raxmatovich

Buxoro viloyati pedagog kadrlar malakasini oshirish milliy markazi matematika va informatika oқituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida AKTdan foydalanish natijalari o'quvchilar va o'qituvchilarning har tomonlama kamol topishi, o'quv jarayonini yuqori metodik darajada tashkil etish, ta'lim samaradorligi va sifatnioshirishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: AKT, matematika ta'limi, texnik vositalar, modellashtirish, kompyuiter texnikalari

KIRISH

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloq qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini jamiyatdagi demokratik o`zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lism sohasini isloq qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzlucksiz ta'limga berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'limga tizimi hisoblanadi. Ta'limga tizimining har bir bo'g'ini alohida o'ringa ega.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da maktab ta'limi rivojlantirish davlat umummilliyligining dasturi" talablarida "ta'limga tarbiya jarayonini shakllantirish ta'limga mazmunini aniqlash, ta'limga tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlarini va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'limga standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodini, o'quv metodik majmualar yaratish" vazifasini hal qilish takidlab o'tilgan.

Zamonaviy maktabda asosiy tarkib komponenti - bu tizimli amalga oshirish va faol foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish jarayoni sifatida axborotlashtirish. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'limga muassasasi ishida, bu o'quvchilarning ko'pchiligi mehnat bozorining yangi va zamonaviy talablariga mos keladigan ta'limga natijalariga erishishini ta'minlashi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Matematika darslarida AKT dan foydalanish uchun avvalo kompyuter dasturlari va ulardan foydalanish yo'llarini bilib olish zarur. Bu esa kompyuter dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki kompyuterni qo'llash orqali ularning ijodiy ko'nikmalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi o'quv kursini yoki uning katta bo'limini mustaqil o'zlashtirishga imkon yaratadi. Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqt qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallahadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanadi; o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo.

Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni taminlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini talim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdag'i o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellastirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini taminlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga malumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar.

NATIJALAR

Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtida ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarda matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, darsda AKTdan foydalangan holda, o'qituvchi darsning AKT vositalari bilan ortiqcha yuklanishi ish vaqtining noratsional taqsimlanishiga, o'quvchilar faolligining pasayishiga va umuman o'rganish samaradorligiga olib kelishini yodda tutishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Malaxovskiy V. Tanish va notanish raqamlar. – Kalinigrad: FGUIPP, 2004.
2. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2000. 3. www.arxiv.uz 4. www.referat.uz